

O‘ZBEKISTONDA TIFLOPEDAGOGIKANING SHAKLLANISHI VA KO‘ZI OJIZ BOLALAR TA’LIMINING RIVOJLANISHI

Zuxra Kabulova

O‘zbekiston milliy universiteti



Annotatsiya: Mazkur maqolada 1925–1990-yillarda O‘zbekistonda ko‘zi ojiz bolalar uchun maxsus ta’lim tizimining shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Arxiv hujjatlari, statistik ma’lumotlar, maxsus maktab-internatlarning o‘quv rejalari, pedagogik hisobotlar hamda sohaga oid ilmiy adabiyotlar asosida maxsus ta’limning institutsional, pedagogik va ijtimoiy jihatlarini yoritilgan. Tadqiqot natijasida 1925–1940-yillar maxsus ta’lim tizimining shakllanishi, 1941–1960-yillar urush va urushdan keyingi tiklanish sharoitidagi rivojlanish, 1961–1980-yillar pedagogik tizimlashuv va ijtimoiy integratsiya, 1981–1990-yillar esa insonparvarlik tamoyillarining kuchayishi hamda inklyuziv ta’lim unsurlarining yuzaga kelishi davri sifatida tavsiflanadi. Shuningdek, Brayl yozuvining ta’lim jarayoniga joriy etilishi, maxsus maktab-internatlar tarmog‘ining kengayishi, tiflopedagog kadrlarni tayyorlash, mehnat va kasbiy ta’limning rivojlanishi tahlil qilingan. Tizim taraqqiyotiga to‘sqinlik qilgan kadrlar yetishmasligi, Brayl yozuvidagi adabiyotlar tanqisligi, moddiy-texnik ta’minotdagi muammolar va hududlar o‘rtasidagi tafovutlarga alohida e’tibor qaratilgan.



Kalit so‘zlar: maxsus ta’lim, ko‘zi ojiz bolalar, tiflopedagogika, Brayl yozuvi, maktab-internat, defektologiya, kasbiy ta’lim, ijtimoiy integratsiya, O‘zbekiston SSR.



Abstract: This article analyzes the formation and historical stages of development of the special education system for blind children in Uzbekistan during 1925–1990. Based on archival documents, statistical data, curricula of special boarding schools, pedagogical reports, and scholarly literature on the subject, the institutional, pedagogical, and social dimensions of special education are examined. The findings characterize 1925–1940 as the period of formation of the special education system; 1941–1960 as a period of development under the conditions of war and post-war reconstruction; 1961–1980 as a period of pedagogical systematization and social integration; and 1981–1990 as a period marked by the strengthening of humanitarian principles and the emergence of elements of inclusive education. The study also examines the introduction of Braille into the educational process, the expansion of the network of special

boarding schools, the training of specialists in typhlopedagogy, and the development of labor and vocational education. Particular attention is paid to the shortage of qualified personnel, the limited availability of Braille literature, problems with material and technical resources, and regional disparities that hindered the development of the system.

 **Keywords:** special education, blind children, typhlopedagogy, Braille, boarding school, defectology, vocational education, social integration, Uzbek SSR.

 **Аннотация:** В статье анализируются становление и исторические этапы развития системы специального образования для незрячих детей в Узбекистане в 1925–1990 годах. На основе архивных документов, статистических данных, учебных планов специальных школ-интернатов, педагогических отчетов и научной литературы рассматриваются институциональные, педагогические и социальные аспекты специального образования. По результатам исследования 1925–1940 годы характеризуются как период формирования системы специального образования; 1941–1960 годы — как период её развития в условиях войны и послевоенного восстановления; 1961–1980 годы — как период педагогической систематизации и социальной интеграции; 1981–1990 годы — как период усиления гуманистических принципов и появления элементов инклюзивного образования. Также анализируются внедрение шрифта Брайля в образовательный процесс, расширение сети специальных школ-интернатов, подготовка специалистов в области тифлопедагогики, а также развитие трудового и профессионального обучения. Особое внимание уделяется нехватке квалифицированных кадров, дефициту литературы на шрифте Брайля, проблемам материально-технического обеспечения и региональным различиям, препятствовавшим развитию системы.

 **Ключевые слова:** специальное образование, незрячие дети, тифлопедагогика, шрифт Брайля, школа-интернат, дефектология, профессиональное образование, социальная интеграция, Узбекская ССР.

Kirish. XX asrda ta'lim tizimining rivojlanishi jamiyatning alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarga munosabatida ham jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Avval oila, mahalla va xayriya shakllari orqali yordam ko'rsatish ustuvor bo'lgan bo'lsa, XX asrning birinchi choragidan boshlab jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarni davlat ta'lim tizimiga jalb qilish masalasi tobora institutsional tus ola boshladi.

O'zbekistonda ko'zi ojiz bolalar uchun maxsus ta'lim tizimining shakllanishi ham murakkab va uzoq davom etgan tarixiy jarayon hisoblanadi. Bu jarayon xalq maorifi tizimining rivojlanishi, davlatning ijtimoiy siyosati, maxsus pedagogika va

defektologiyaning ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi, tibbiy-pedagogik xizmatlarning tashkil qilinishi hamda maxsus maktab-internatlar tarmog‘ining kengayishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda ko‘zi ojiz bolalarni o‘qitishning pedagogik va psixologik masalalari nisbatan keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, 1925–1990-yillarda O‘zbekistonda mazkur tizimning shakllanishi va evolyutsiyasini tarixiy jarayon sifatida arxiv manbalari asosida yaxlit o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi 1925–1990-yillarda O‘zbekistonda ko‘zi ojiz bolalar uchun maxsus ta‘limning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, ta‘lim mazmunidagi o‘zgarishlar va tizim taraqqiyotiga ta‘sir qilgan asosiy omillarni tarixiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillari asosida davrlashtirish, tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik qiyoslash hamda kontent-tahlil usullaridan foydalanildi.

Maqolaning asosiy manbaviy bazasini O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan sobiq O‘zbekiston SSR Xalq maorifi komissarligi va Xalq maorifi vazirligiga oid hujjatlar tashkil etadi. Xususan, maxsus maktab-internatlar faoliyatiga oid yillik va statistik hisobotlar, 1961–1962-o‘quv yilidagi o‘quv rejalari, maxsus ta‘lim muassasalari xodimlarining respublika seminar va yig‘ilishlari materiallari muhim ahamiyatga ega. Mazkur hujjatlar ta‘lim muassasalarining soni, o‘quvchilar tarkibi, o‘quv jarayoni, moddiy ta‘minoti hamda mavjud muammolarni aniqlash imkonini beradi.

O‘zbekistonda ko‘zi ojiz bolalarni maxsus ta‘lim bilan qamrab olishning dastlabki tashkiliy ko‘rinishlari 1920-yillarda yuzaga keldi. Bu davrda bolalarni umumiy ta‘limga jalb qilish va savodsizlikni tugatish davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biriga aylangan edi.

Manbalarda 1922-yilda Toshkentda zaif ko‘ruvchi bolalar uchun 20 o‘rinli maktab faoliyat boshlagani qayd etiladi. Garchi ushbu muassasa respublikadagi ehtiyojni to‘liq qamrab olmagan bo‘lsa-da, ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalarni maxsus tashkil etilgan sharoitda o‘qitish tajribasining shakllanishida muhim qadam bo‘ldi.

1920-yillarning ikkinchi yarmida ta‘lim tizimini markazlashtirish, bolalarni ro‘yxatga olish va davlat tasarrufidagi muassasalarga joylashtirish mexanizmlari shakllana boshladi. Biroq dastlab ko‘rish, eshitish yoki boshqa rivojlanish xususiyatlariga ega bolalar ta‘lim ehtiyojlari aniq differensiallashtirilmagan edi. Maxsus pedagoglar, moslashtirilgan o‘quv dasturlari va didaktik vositalarning yetishmasligi tizim taraqqiyotining asosiy muammolaridan bo‘lib qoldi.

1930-yillarda umumiy boshlang‘ich ta‘limning joriy qilinishi maxsus ta‘limga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatdi. Davlat siyosatida bolalarni nafaqat savodli qilish, balki ularni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlash tamoyili ustuvorlik kasb etdi. Natijada maxsus maktablarda mehnat tarbiyasi, hunar o‘rgatish va ishlab chiqarishga tayyorlash elementlari kuchayib bordi.

Shunday qilib, 1925–1940-yillarni O‘zbekistonda ko‘zi ojiz bolalar uchun maxsus ta’limning institutsional asoslari shakllangan dastlabki bosqich sifatida baholash mumkin. Aynan shu davrda xayriya va ijtimoiy parvarish modelidan davlat tomonidan tashkil etiladigan maxsus ta’lim modeliga o‘tish yuz berdi.

Ikkinchi jahon urushi maxsus ta’lim muassasalari faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Maktab binolarining boshqa ehtiyojlarga ajratilishi, oziq-ovqat va yoqilg‘i taqchilligi, pedagog kadrlarning frontga safarbar qilinishi o‘quv jarayonini murakkablashtirdi.

Shunga qaramay, mavjud internatlarning faoliyati imkon qadar saqlab qolindi. Urush sharoitida pedagoglar zimmasiga ta’lim berishdan tashqari bolalarning kundalik ehtiyojlarini ta’minlash, parvarish qilish va ularning ruhiy holatini qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalar ham tushdi.

Urushdan keyingi yillarda maxsus maktablarni tiklash, ularning moddiy bazasini mustahkamlash, o‘quvchilarni qayta ro‘yxatga olish va pedagog kadrlar bilan ta’minlash ishlari kuchaydi. 1950-yillardan boshlab respublikaning turli hududlarida ko‘zi ojiz bolalar uchun maktab-internatlar tashkil etilishi mazkur yo‘nalishning hududiy kengayishiga olib keldi.

Jumladan, 1953-yilda Buxoroda ko‘zi ojiz bolalar uchun internat-maktab tashkil etilgan bo‘lib, keyingi davrda undagi o‘quvchilar soni sezilarli ravishda oshgan. 1954-yilda Xivada ham shu turdagi muassasa ish boshladi. Bu jarayon ko‘zi ojiz bolalarni faqat Toshkentdagi ta’lim muassasalari orqali qamrab olishdan hududiy maktab-internatlar tizimiga o‘tishni anglatardi.

1950–1960-yillarning yana bir muhim xususiyati maxsus ta’lim uchun professional kadrlar tayyorlashning yo‘lga qo‘yilishi bo‘ldi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida defektologiya yo‘nalishining rivojlantirilishi hamda keyinchalik tiflopedagog va boshqa maxsus pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimining shakllanishi respublika maxsus maktablarini malakali kadrlar bilan ta’minlash uchun asos yaratdi.

1960-yillarning boshlariga kelib O‘zbekiston SSRda maxsus ta’lim nisbatan shakllangan institutsional tizimga aylandi. Arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, 1961–1962-o‘quv yilida respublikada jismoniy va aqliy rivojlanishida turli xususiyatlari bo‘lgan bolalar uchun 20 ta maxsus maktab-internat faoliyat yuritgan. Ularda 263 ta sinfda 3 415 nafar o‘quvchi ta’lim olgan. Shundan ko‘zi ojiz bolalar uchun mo‘ljallangan to‘rtta muassasaning 37 ta sinfida 400 nafar bola tahsil olgan.

Mazkur ma’lumotlar 1960-yillarga kelib ko‘zi ojiz bolalar ta’limi maxsus ta’lim tizimining mustaqil yo‘nalishi sifatida shakllanganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, to‘rtta muassasaning butun respublika ehtiyojini qamrab olishi mumkin emasligi ham hududiy tengsizlik mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Bu davrda maxsus maktablar uchun tasdiqlangan o‘quv rejalari ishlab chiqilib, umumta’lim fanlari bilan bir qatorda maxsus korreksion mashg‘ulotlar, mehnat, musiqa va jismoniy tarbiyaga katta ahamiyat berildi. Brayl yozuvi ko‘zi ojiz bolalar savodxonligining asosiy vositasiga aylandi.

Ko'zi ojiz o'quvchilarning faqat akademik bilim olishi emas, balki mustaqil harakatlanishi, kundalik turmush ko'nikmalarini egallashi, mehnat faoliyatiga tayyorlanishi ham maxsus pedagogikaning muhim vazifalaridan biri sifatida qaraldi.

Ayniqsa, mehnat ta'limiga katta ahamiyat berildi. Maktab-internatlardagi ustaxonalarda o'quvchilar muayyan mehnat operatsiyalari va kasbiy ko'nikmalarni egalladilar. Mazkur yondashuv bir tomondan sovet davridagi mehnatga asoslangan tarbiya konsepsiyasi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan ko'zi ojiz yoshlarning ta'limni tugatgandan keyin mustaqil hayot kechirishi uchun amaliy imkoniyat yaratishga qaratilgan edi.

Musika va badiiy faoliyat ham ta'lim-tarbiya jarayonida alohida o'rin egalladi. Maxsus musiqa maktab-internatlarining o'quv rejalari musiqiy qobiliyatga ega o'quvchilarga professional tayyorgarlik olish imkonini bergan. Badiiy havaskorlik, sport, sahna tadbirlari va turli to'garaklar bolalarning jamoaga qo'shilishi hamda o'z qobiliyatini namoyon qilishida muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Maxsus ta'lim tizimining rivojlanishiga qaramay, uning imkoniyatlarini cheklagan qator tizimli muammolar mavjud bo'lgan.

Birinchidan, malakali tiflopedagoglar yetishmasligi uzoq muddat davomida dolzarb muammo bo'lib qoldi. Pedagogik institutlarda defektologiya yo'nalishining tashkil etilishi vaziyatni bosqichma-bosqich yaxshilagan bo'lsa-da, barcha hududlardagi maxsus maktablarni yetarli miqdordagi mutaxassislar bilan ta'minlash imkoniyati mavjud emas edi.

Ikkinchidan, Brayl yozuvidagi darsliklar va maxsus o'quv vositalari taqchilligi o'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Maxsus qog'oz, yozuv vositalari va moslashtirilgan adabiyotlarning yetarli emasligi ayrim fanlarni o'qitishni murakkablashtirdi.

Uchinchidan, maxsus maktablarning asosan yirik shaharlarda joylashuvi qishloq hududlaridagi bolalarning ta'lim bilan qamrab olinishiga to'sqinlik qildi. Uzoq masofadagi internatda yashash zarurati ayrim ota-onalarning farzandlarini maxsus maktabga yuborishdan voz kechishiga sabab bo'lgan.

To'rtinchidan, ta'lim tilidagi muammolar ham kuzatilgan. Rus tilidagi maxsus adabiyotlar nisbatan ko'p bo'lgan bir sharoitda o'zbek tilidagi Brayl darsliklari va metodik qo'llanmalarga ehtiyoj saqlanib qolgan. 1980-yillarning oxiriga kelib o'zbek tilida maxsus o'quv adabiyotlarini yaratishga e'tiborning ortishi mahalliy ehtiyojlarni hisobga olish yo'lidagi muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi.

1980-yillarda maxsus ta'lim mazmunida bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olish, mustaqil turmushga tayyorlash va ijtimoiy reabilitatsiyaga e'tibor kuchaydi. Ta'lim jarayonini faqat nuqsonni korreksiya qilish vositasi sifatida emas, balki bolaning mavjud qobiliyatlarini rivojlantirish va uning jamiyatdagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qiluvchi tizim sifatida tushunishga moyillik yuzaga keldi.

Qayta qurish davrida insonparvarlik va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik qarashlarning kuchayishi maxsus ta'limga ham ta'sir etdi. Bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan ijtimoiy aloqalarini kengaytirish, madaniy va sport tadbirlarida

ishtirokini oshirish hamda ta'lim jarayonida individual yondashuvga ko'proq e'tibor berila boshlandi.

Mazkur tendensiyalar keyingi davrda shakllangan inklyuziv ta'lim konsepsiyasining ayrim dastlabki elementlari sifatida baholanishi mumkin. Biroq bu davrda to'liq inklyuziv ta'lim tizimi shakllangan deb bo'lmaydi. Asosiy ta'lim modeli hali ham maxsus maktab-internatlar orqali amalga oshirilgan.

Shu jihatdan 1981–1990-yillar oldingi davrda shakllangan segregatsion maxsus ta'lim modelidan bolaning ijtimoiy integratsiyasi va shaxsiy imkoniyatlariga ko'proq e'tibor qaratuvchi model tomon bosqichma-bosqich o'tish davri hisoblanadi.

1925–1990-yillarda O'zbekistonda ko'zi ojiz bolalar uchun maxsus ta'lim tizimi murakkab tarixiy evolyutsiyani bosib o'tdi. Tadqiqot natijalari bu jarayonni shartli ravishda to'rt asosiy bosqichga ajratish imkonini beradi: 1925–1940-yillar — tizimning shakllanishi; 1941–1960-yillar — urush va urushdan keyingi tiklanish sharoitidagi rivojlanish; 1961–1980-yillar — pedagogik tizimlashuv va ijtimoiy integratsiya; 1981–1990-yillar — insonparvarlik tamoyillarining kuchayishi va inklyuziv yondashuv elementlarining yuzaga kelishi.

O'rganilgan davr davomida ko'zi ojiz bolalarga munosabat ham sezilarli ravishda o'zgardi. Dastlab parvarish va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxs sifatida qaralgan bola asta-sekin bilim olish, kasb egallash va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega shaxs sifatida e'tirof etila boshladi.

Maxsus maktab-internatlar tarmog'ining shakllanishi, Brayl yozuvining o'quv jarayoniga joriy qilinishi, tiflopedagogika bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning yo'lga qo'yilishi, kasbiy va mehnat ta'limining rivojlanishi mazkur tarixiy jarayonning asosiy natijalari bo'ldi.

Shu bilan birga, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi, malakali tiflopedagoglarning tanqisligi, Brayl yozuvidagi darsliklarning kamligi, hududlar o'rtasidagi ta'lim imkoniyatlarining notengligi va o'zbek tilidagi maxsus adabiyotlarning yetishmasligi tizimning barqaror muammolari sifatida saqlanib qoldi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, maxsus ta'lim samaradorligi faqat maxsus muassasalar soni bilan emas, balki malakali pedagog, sifatli va moslashtirilgan o'quv vositalari, oila bilan hamkorlik, kasbiy tayyorgarlik hamda bolaning jamiyat bilan faol integratsiyasini ta'minlash darajasi bilan belgilanadi. 1925–1990-yillarda to'plangan ushbu tajriba O'zbekistonda zamonaviy maxsus va inklyuziv ta'limni takomillashtirish uchun muhim tarixiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Milliy arxivi. F. 94, 1-ro'yxat, 1415-yig'majild. O'zSSR Xalq maorifi xalq komissariati huzuridagi yetim bolalar uylari bo'limi hujjatlari. 1934–1935-yillar. – 149 varaq.
2. O'zbekiston Milliy arxivi. F. 94, 7-ro'yxat, 540-yig'majild. 1961–1962-o'quv yili uchun ko'zi ojiz bolalarga mo'ljallangan maktab-internatlar o'quv rejalarini. – 22 varaq.

3. O‘zbekiston Milliy arxivi. F. 94, 7-ro‘yxat, 541-yig‘majild. Bolalar uylari va maxsus maktab-internatlarning 1961–1962-o‘quv yilidagi faoliyatiga oid yillik va statistik hisobotlar. – 96 varaq.
4. O‘zbekiston Milliy arxivi. F. 94, 7-ro‘yxat, 570-yig‘majild. Maxsus maktab-internatlar xodimlarining Respublika yig‘ilishi materiallari. – Toshkent, 1963. – 104 varaq.
5. Народное образование в Узбекской ССР: сборник статистических материалов. – Ташкент: Узбекистан, 1975; 1980.
6. Феоктистова В.А. История тифлопедагогики. – Москва: Просвещение, 1980. – 216 с.
7. Коваленко Б.И. Трудовая подготовка учеников школ слепых. – Москва, 1977.
8. Шадрина Т.А. Специальное образование в СССР: проблемы и перспективы. – Москва: Педагогика, 1987. – 214 с.
9. СССР. Закон от 24 декабря 1958 г. «Об укреплении связи школы с жизнью и о дальнейшем развитии системы народного образования в СССР» // Ведомости Верховного Совета СССР. – 1959. – № 1.
10. Kabulova Z. The Formation and Teaching Methods of Educational Institutions for Visually Impaired Children in Uzbekistan (1925–1990) // Frontline Social Sciences and History Journal. – 2025. – Vol. 5, No. 5. – P. 31–36.